




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



60	Saida NORMAMATOVA, Surxondaryo qipchoq shevalarida chorvachilik oid leksika	703
61	Feruza QOSIMOVA, O‘zbek dialektologiyasida qo‘llanilgan transkripsion belgilar tizimi	707
62	Dilnoza RAIMBERDIYEVA, “Oychinor” dostonining fonetik dialektizmlari tahlili	711
63	Shohida MAMARAJABOVA, Uzun tumani areali bo‘ylab qo‘ng‘irot shevalarining tarqalishi	713
64	Shahzoda MURODOVA, “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida boshlanma	717
65	Mohidil RAJAMATOVA, Parkent tumani folklori namunalari tahlili	723
66	Holida HUSANOVA, “Zarbulmasal”dagi maqollar tahlili	726
67	Gulsevar TURSUNOVA, Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga qo‘shgan hissasi	730
68	Malika AMINJONOVA, Namangan o‘zbek shevalarining o‘zbek adabiy tiliga munosabati	735
69	Behruz BOBOYOROV, O‘zbek tilida blingvizm hodisasi va uning o‘rganilish talqinlari	739
70	Nazokat QODIROVA, Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asari leksikasining tematik guruhlar	745
71	Shodiya QOSIMOVA, Muyassar XOLOVA, O‘zbek milliy korpusiga yozma matnlarni kiritishning metodologiyasi: tematik va metama’lumotli (Mingbuloq tumani misolida)	748
72	Muborak XAYDAROVA, Muyassar XOLOVA, Dialekt va nutq madaniyati	751
73	Muxlisa KUCHIMOVA, Mifologiyada hayvon obrazlarining badiiy ifodasi	748
74	Marjona TOG‘AY, “Qoraqayun” romanida qo‘llangan leksik dialektizmlar tahlili	752

DIALEKT VA NUTQ MADANIYATI

DIALECT AND SPEECH CULTURE

Muyassar XOLOVA,

TerDU O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti,

Muborak XAYDAROVA,

Termiz davlat universiteti talabasi

10.52773/tsuull.conf.2026/OQUE4076

Annotation. *This thesis examines the significance of dialectisms in the emergence of cultured speech, as well as the functions of elements related to dialect in the communicative qualities of speech and their impact on speech. In addition, cultured speech is revealed based on analyses and empirical approaches: communicative qualities of speech and interrelations between dialects.*

Key words. *dialect (speech), cultured speech, communicative qualities of speech: purity, expressiveness, richness of speech and attitude toward dialect, pragmalinguistics, and areal linguistics.*

So'nggi yillarda "madaniy nutq" tushunchasi pragmlingvistik jihatdan ko'plab tadqiqotlar va ilmiy qarashlar orqali boyib bormoqda. Nutq madaniyatini shakllantirish, nutq jarayonida grammatik xatoliklarni oldini olish va uning leksik-semantik ko'lamini kengaytirish maqsadida ko'plab tilshunoslarning, xususan, N.Mahmudov [Mahmudov:34], A.Omonturdiyev [Omonturdiyev:3] hamda B.Umurqulov [Umurqulov:45] kabi olimlarning ilmiy-metodologik yondashuvlari jamoatchilik tomonidan tez-tez amaliyotda qo'llanmoqda. Nutq madaniyatini shakllantiruvchi 7 muhim kommunikativ sifat (to'g'rilik, aniqlik, soflik, mantiqiylik, jo'yalilik, boylik, ifodalilik) jahon lingvistikasida "madaniy nutq" (cultural speech/культуры речи) tushunchasini olib kirdi. Ushbu 7 sifat turli leksik birliklar orqali takomillashib, o'z tarmoqlarini kengaytirdi. Ayniqsa, bu borada dialektal birliklarning ichki va tashqi ta'siri alohida e'tiborga molik va nutq madaniyati jarayonga dialektologiyani bevosita ta'siri haqida so'z yuritish ekanmiz, ushbu pragmlingvistik hodisaning boyish va ta'sir etish doirasidagi imkoniyatlari dialektologiya bilan bog'liq hamda nutqning boylik va ifodalilik kommunikativ sifatlarida bu qarash o'z isbotini topadi.

Nutqning boyligi va dialektologiya: Jahon lingvistikasida tilning boyligi sinonimlar bilan belgilanadi, sinonimlarning shakllanishida esa o'zlashma va dialektal leksemalarning ahamiyati katta. Dialektal leksemalarda bu hodisa tilning ichki imkoniyatlari asosida – o'z

qatlam orqali boyishida namoyon bo'ladi. Masalan, *yalpiz* so'zining sinonimik qatorining *pudina*, *hulvo* shevalarda qo'llanadigan varianti orqali, *sariyog'* so'zining sarimoy shakli asosida, *qumg'on* so'zining *tanqa* dialektal ko'rinishlarining [Temirova:42] aynan dialektlar asnosida shakllanganing guvohi bo'lishimiz mumkin, bundan kelib chiqadiki, dialektal birliklarning o'zbek adabiy tili tarkibiga asta-sekinlik bilan singib borishi madaniy nutqning boylik kommunikativ sifati uchun muhim. Shuningdek, dialektlarga yordamchi fe'llar qo'shib, kompozitsion usulda so'zlar yasash orqali, tilning lug'at tarkibidagi so'zlarning miqdorini oshirish mumkin: masalan, *majaq qilmoq*, *abjag'ini chiqarmoq* yoki *ul bo'lsin*, *gap qilmoq* kabi qo'shma so'zlarning yuzaga chiqishi "sheva+leksema" ko'rinishida bo'lgan.

Nutqning ifodaliligi va dialektologiya: Nutqning ifodaliligini ta'minlovchi birliklar sifatida iboralar, tasviriy ifoda, matallar va maqollar nazarda tutiladi. Biroq ushbu leksik birliklarning areal ko'rinishlari ham mavjud bo'lib, ular hududiy miqiyosda o'zining ifodalilik sifatini namoyon eta oladi. Masalani frazeologizmlar misolida ko'radigan bo'lsak, *alag'da bo'lmoq* (*xavotir olmoq*), *halak bo'lmoq* (*ovora bo'lmoq*) [Sayfullayeva: 67] areal iboralar ham nutqning ta'sirchanligini oshirishda muhim o'rin tutadi va ularning genezisi bevosita sheva bilan bog'liq. Qolaversa, "Xotin kishining charxi bilan o'chog'iga tagma", "Ko'bachilikning duosi ko'l", "Mishiqt oftobga tekin chiqmaydir" [Xudoyqulova:300] kabi dastlab dialektal tarkibda bo'lgan xalq maqollarning vaqt o'tishi "sayqallanishi" uning adabiy til tarkibiga o'tishiga zamin yaratadi va bu hodisa tilning ichki imkoniyatlari asosida o'zida nutqning ta'sirchanlik kommunikativ sifatini ro'yobga chiqarishda zamin yaratadi.

Nutqning sofligi va dialektologiya: Garchi lingvistik nuqtayi nazardan madaniy nutqda shevalardan foydalanish nutqning sofligiga putur yetkazsa-da, badiiy asarlarda shevaga oid so'zlardan foydalanish asar "til"ini kitobxonga to'g'ri anglashiga zamin yaratadi, boisi yozuvchilar, asosan, badiiy asarlarda kitobxonga voqealik yuzasidan mahalliy va milliy kolorit berish maqsadida dialektlardan foydalanadi. Misol uchun, To'g'ay Murod asaridagi quyidagi parchaga e'tibor qaratsak: "*To'ntariqlik* toboqlar ostini qaradi. *O'rog'lik* suprani yotib qaradi...1934 yil *oyoqladi*...Kulbalarda bekasi bilan xo'jasi *uzala tushib* o'lib yotdi". Ushbu parchadagi ayrim so'zlar kitobxonga janub nafasini (Surxondaryo koloriti) berishga va maullifning badiiy mahorat, uslub va maqsadini ko'rsatib berishga xizmat qilgan. Shuningdek, M.Xolova, A.Turdialiyev [Turdialiyev: 106], X.Fayziyeva [Fayziyeva: 89] kabi olimlarning tadqiqot ishlari ham ayni Surxon vohasi: Boysun, Denov, Sho'rchi tumanlarining dialektal xususiyatlari orqali mahalliy bo'yoqni berishga xizmat qiladi.

Xulosa shuki, shevaga oid so'zlar tilning ichki imkoniyatlari asosida maqollarning, iboralarning takomillashuvini amalga oshiribgina qolmay, lug'at tarkibidagi so'zlarning sinonimik jihatdan kengayishini va yangi derivatsiyalarni yuzaga chiqaradi. Pragmalingvistik tushunchalar – nutq madaniyatini yuzaga chiqaruvchi kommunikativ sifatlar hamda areal lingvistikadagi birliklar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik til va nutqni

yanada keng ko'lamda yoritishga hamda ularning imkoniyatlarini namoyon etishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati //T.: A. Navoiy nashr. – 2007.
2. Omonturdiyev A. J., Abduraimova S. . O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati //Toshkent-2016. – 2016.
3. Bekpo'lat U. et al. NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK. – 2024.
4. Ashirboyev S. O 'zbek dialektologiyasi //Toshkent: Nodirabegim. – 2021.
5. Temirova K.. «O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug 'ati» da berilgan gastronomik birliklarning semantik guruhlanishi //Philological research: language, literature, education. – 2024. – T. 7. – №. 7-8.
6. Sayfullayeva, R. [Hozirgi o'zbek adabiy tili](#) [Elektron resurs] / R. Sayfullayeva. – Toshkent : O'qituvchi, 2009. – Kirish rejimi: <https://yangi.cspu.uz/sayfullayeva-r-tuychiev>
7. Xolova M. [Ўзбек миллий шевалари корпусини тузишнинг лингвистик асослари \(Бойсун тумани “ж” ловчи шевалари мисолида\) Филол. ф. ф. д. дисс... 2022](#)
8. Turdialiyeu A. Denov kichik dialektal zonasining xususiyatlariga doir //Oltin bitiglar–Golden Scripts. – 2022. – T. 3. – №. 3.
9. Fayziyeva X. “O'zbek tili Boysun–Sho'rchi guruhi shevalarining lug'aviy xususiyatlari” (PhD, 2023, Termiz)
10. Xudoyqulova S. Maqollarda shevaga xos so'zlarning qo'llanilishi //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 299-303.